


UMUMIY O'RTA TA'LIM

2020/2021 o'quv yilida mavjud 927 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 680294 ta o'quvchilar tahsil olgan bo'lsa, ulardan 288800 nafari qishloq joylarda joylashgan 546 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari hissasiga to'g'ri keladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan (68.0) foizi ikki smenada mashg'ulot olib boradi. Ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, Beshariq tumani(57.4%), Oltiariq tumani (66.4%) So'x tumani (63.3%), Toshloq tumanida (65.1%), O'zbekiston tumani (69.8%) hamda Marg'ilon shahari (65.2%) Farg'ona shahrida (65.1%) yuqori foizni tashkil etmoqda. Viloyat bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning 216615 nafari ikkinchi smenada ta'lim olmoqda.


1-rasm



2-rasm


Umumiy o'rta ta'lim maktablarini mashg'ulotlar smenaligi bo'yicha taqsimlanishi

foizda (2016-2020 yillarida)




3-rasm

Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi



4-rasm

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va ulardagi o'quvchilar soni



Ta'lim tizimining ahvoli haqida muhim ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu ta'lim muassasalarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonidir. U o'quvchilar umumiy sonini o'qituvchilar umumiy soniga bo'lish orqali aniqlanadi. **2020**-yilda Farg'ona viloyatining umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni 13 ga teng bo'ldi .